

**ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA  
QISHLOQ XO'JALIK YERLARINI MONITORING QILISH VA ELEKTRON  
KARTALARINI TUZISH**

**Tursunov A.A. Ishmurodova S.Sh**

**“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti**

**Stj.o'qituvchilari**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda qishloq xo'jalik yerlarini monitoring qilish va elektron kartalarini tuzish, qishloq xo'jaligi kartalarini yangilash bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekinlarni monitoring qilish yangi tizimini joriy etish, qishloq xo'jaligi yerlari talon-toraj qilinishi oldini olish, yer tuzish, masofadan zondlash va raqamlashtirish ishlarini yanada jadallashtirish, moddiy-texnika bazani mustahkamlash, malakali kadrlar bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish maqsad qilingan.

**Kalit so'zlar:** Respublikamizda qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish, 1:10000 masshtabdagi elektron raqamli kartalarini yangilash, yer tuzish, ball bonitet va konturlar .

**Аннотация:** В данной статье представлена информация по использованию современных технологий и мониторингу сельскохозяйственных земель и созданию электронных карт, обновлению сельскохозяйственных карт. Внедрение новой системы мониторинга сельскохозяйственных угодий и посевов, предотвращение разграбления сельскохозяйственных земель, дальнейшее ускорение землеустроительных работ, дистанционного зондирования и цифровизации, укрепление материально-технической базы, обеспечение квалифицированными кадрами. Направлено на совершенствование системы снабжения и обслуживания.

**Ключевые слова:** Мониторинг земель сельскохозяйственного назначения в нашей республике, обновление электронных цифровых карт масштаба 1:10000, межевание, выставление оценок и контуров.

**ABSTRACT:** This article provides information on the use of modern technologies and the monitoring of agricultural land and creation of electronic cards, updating of agricultural cards. Introduction of a new system of monitoring agricultural land and crops, prevention of agricultural land looting, further acceleration of land surveying, remote

sensing and digitization, strengthening of the material and technical base, providing qualified personnel It is aimed to improve the provision and service system.

**Keywords:**Monitoring of agricultural land in our republic, updating electronic digital maps on a scale of 1:10000, land surveying, scoring and contours.

2022-yil 14-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 22-sonli qarori “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, qaroriga muvofiq

❖ qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringini O‘zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimidagi davlat yer kadastrining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha yer turlari, maydoni, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlari asosida amalga oshirish;

❖ qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringining O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari va tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limlari, shuningdek, “O‘zdaverloyiha” instituti va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi;

❖ qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringini davriy, joriy va tezkor monitoring shakllarida amalga oshirish;

❖ qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi davomida olingan ma‘lumotlardan qishloq xo‘jaligi yerlari holati va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlashda foydalanish belgilab berildi.

Shu sababdan keyingi yillarda respublikamizda qishloq xo‘jaligi kartalarini yangilash yoki yaratish ishlari yerni masofadan zondlash hamda raqamli aerofotoapparatlardan foydalanilgan holda amalga oshirilmoqda. Bu holat respublika hududi bo‘yicha ortofotoplanlarni yaratishda quyidagi noqulayliklarga olib kelgan:

❖ olingan aerosuratlar oq-qoraligi (rangsiz);

❖ hududni tasvirga tushirishda xarajatlarning yuqoriligi (samolyot, yoqilg‘i va boshqalar);

❖ kameral holda ishlarni bajarishda ko‘p vaqt sarflanishi (tasvirlar geobog‘lanmaganligi, dasturiy ta‘minotlarning eskiligi va boshqalar);

❖ qo‘l mehnatining ko‘pligi;

❖ planli va balandlik bo‘yicha koordinatalarni bog‘lash ishlariga ko‘p vaqt va mablag‘larning sarflanishi bilan baholangan.

Hozirda masofadan zondlashda uchuvchisiz uchish qurilmalari hukumatimiz topshirig'iga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi" hamda "O'zdaverloyiha" instituti tomonidan respublikamizga olib kelinib, tizim tashkilotlari tomonidan keng ko'lamdagi ishlarni bajarishda foydalanib kelinmoqda. Uchuvchisiz uchish qurilmalari parvozi havo kemalari parvozi uchun maxsus hududlarda qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Uchuvchisiz parvoz qiluvchi qurilmalar parvozi nazorati O'zbekiston Respublikasining parvozlarning xavfsizligi nazorat qilish bo'yicha Davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

"O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti geofazoviy ma'lumotlar infratuzilmasini takomillashtiradi.

"O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash institutining hududiy bo'linmalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish maqsadida o'quv-tajriba xo'jaliklarini tashkil etish hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va doimiy kuzatuv monitoringini amalga oshirish belgilab olingan.

O'zbekiston Respublikasi "Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi" 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, keyinchalik integratsiya qilgan holda muntazam ravishda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning yer turlari va maydoni to'g'risidagi ma'lumotlarni (yer egalari, yerdan foydalanuvchilari va ijarachilari kesimida) elektron ko'rinishda yer hisoboti bo'yicha Qishloq xo'jaligi vazirligiga taqdim etishlari zarur.

Uchuvchisiz parvoz qiluvchi qurilmadan quyidagi yo'nalishlarda foydalaniladi:

- ❖ kartografiya (kartalarni yirik masshtablarda tuzish va yangilash);
- ❖ monitoring (qishloq xo'jaligi ekin yer maydonlarini yo'qlamadan o'tkazishda);
- ❖ yaqin tasvir (xo'jalikda ichik yer tuzish ishlarini amalga oshirishda);
- ❖ qishloq xo'jaligida uchuvchisiz parvoz qiluvchi qurilmaning bajaradigan vazifalari:
  - ❖ yerlarni joyida ko'rib chiqish va yo'qlamadan o'tkazish;
  - ❖ meliorativ holati og'ir ahvoldagi yerlarni aniqlash;
  - ❖ yerdan foydalanishda agrotexnika tadbirlarini qonun talab darajasida olib borish;

Uchuvchisiz parvoz qiluvchi qurilmalar nafaqat aerofotosyomka qilishda balki o'simliklarni kimyoviy himoyalashda ham bir qancha avfzalliklarga ega.

Agrodron afzalliklari:

- ❖ dala tuproq qatlamining zichligi oshmaydi, ekin payhon qilinmaydi;
- ❖ ekinning hosil, shox va elementlariga shikast yetkazilmaydi;
- ❖ ekin kasalliklari sun'iy tarqalishining oldi olinadi



- ❖ mevali daraxtlarga ishlov berish uchun qulaylik yaratiladi;
- ❖ samolyot va shamol yordamida purkagichlar yerdan borish imkoni mavjud bo'lgan hududlarga ishlov berish uchun qulay sanaladi.

Uchuvchisiz uchish apparati qishloq xo'jaligida qo'llanishi natijasida dalaning elektron kartasini avtomatik tarzda aerosuratga olish orqali yaratish hamda ma'lumotlarga avtomatik tarzda qayta ishlov berish, qishloq xo'jalik ekinlarini inventarizatsiya qilish, bajarilgan ishlar hajmini baholash va ularning bajarilishini nazorat qilish, ekinlar holatini operativ monitoring qilish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini nazorat qilish, qishloq xo'jaligi ekinlarining unib chiqishini nazorat qilish, yerni haydash sifatini tekshirish, shuningdek, ma'lumotlarni tahlil uchun yuborish imkoniyatini beradi. Qishloq xo'jaligida uchuvchisiz uchish apparati yordamida o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari Elektron raqamli kartalarni yangilash (yaratish)da innovatsion texnologiyalardan yana biri Koreya kompaniyasidan xarid qilingan sun'iy yo'ldoshlardan olingan kosmik suratlardan ortofotoplanlar yaratishda, ortofotoplanlarni kameral va dala sharoitida korxonada mutaxassislari tomonidan deshifrovkalashda keng ko'lamda foydalanish mumkin.

### **XULOSA**

1. So'nggi yillarda dunyo miqyosidagi ilm-fan taraqqiyoti barcha tarmoqlarda bo'lgani kabi iqtisodiyot tarmoqlarining turli sohalarida foydalanib kelinayotgan qishloq xo'jalik va boshqa ko'plab yo'nalishlarning kartalarini yaratish texnologiyalariga ham bir qator yangiliklar olib kirish mumkin.

2. Kosmik va aerosuratlardan keng ko'lamda foydalanilgan holda aniqlik darajasi yuqori bo'lgan elektron raqamli kartalarni tenglashtirish, transformatsiya qilish va yaratish texnologiyasi yo'lga qo'yish mumkin

3. Elektron raqamli kartalardan yer tanlash, yer ajratish, qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish va ularning monitoringini olib borish, yer tuzish, yer kadastr ishlarini amalga oshirish, yerlarning tuproq kartasini yaratish, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar, shuningdek, klaster hamda fermer xo'jaliklari tomonidan foydalanilayotgan yer maydonlarining joylashgan o'rnini va chegaralarini aniq ko'rsatib berish, ularga belgilangan tartibda kadastr raqamlarini berish, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarning joylashuvini ko'rsatish va boshqa ko'plab yo'nalishlarda foydalanish uchun joriy etish mumkin.

4. 2022-yil 14-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 22-sonli qarori "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi, qarorga asosan yerlarni doimiy nazorat qilish imkoni yaratildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.01.2022-yil 22-sonli qarori "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.04.2023-yil 169-sonli qarori "Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqning unumdor qatlamini saqlash va undan oqilona foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"
4. S.Avezbayev, S.N.Volkov Yer tuzishni loyihalash "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashryoti" Toshkent-2006.
5. R.A.Turayev, R.N.Sharopov Lalmi yerlar monitoringi "Lesson Press" Toshkent-2023
6. R.A.Turayev Yer monitoring "Lesson Press" Toshkent-2022
7. Lex.uz, Ziyonet.uz

